

## PROFESSIONAL XOR SAN'ATINING RIVOJLANISHI

***Odiljonova Gulshoda Akmaljon qizi***

*Andijon viloyati Jalaquduq tumani 20-son  
Bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** O'zbek bolalar xorlari repertuarlarida jo'rsiz uslubda yozilgan asarlar hamda ularning jadal sur'atlar bilan rivojlanishida o'zbek kompozitorlarining zgan asarlarini ahamiyati haqida, shu bilan bir qatorda o'zbek xor san'atini rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritilgan. Professional xor san'atining rivojlanishida bolalar uchun yozilgan musiqiy asarlarning ahamiyatli jihatlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** xor san'ati, an'anaviy musiqa, xor havaskorligi, bolalar xori, xor ijrochiligi, aralash xorlar, badiiy guruhlar, jo'rsiz xorlar, ko'p ovozli xor.

### РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ХОРОВОГО ИСКУССТВА

*Одильжонова гульшода Акмалжон кызы учитель Детской музыкально-художественной школы № 20 Джаладукского района Андижанской области*

**Аннотация:** В репертуаре узбекских детских хоров говорилось о произведениях, написанных в непристойном стиле, а также о значении произведений узбекских композиторов в их стремительном развитии, а также об этапах развития узбекского хорового искусства. В развитии профессионального хорового искусства намечается значимость музыкальных произведений, написанных для детей.

**Ключевые слова:** хоровое искусство, традиционная музыка, хоровая самодеятельность, детский хор, хоровое исполнение, смешанные хоры, художественные группы, хоры без сопровождения, многоголосный хор.

### DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL CHORAL ART

*Odiljonova Gulshoda Akmaljon girl teacher of children's music and Art School No.  
20 Jalakuduq District of Andijan region*

**Anotation:** in the repertoire of Uzbek children's choirs, works written in a joyless style and the importance of zgan works by Uzbek composers in the rapid development of their music were mentioned, as well as the stages of the riaojilization of Uzbek Choral Art. In the development of professional choral art, significant aspects of musical works written for children are described.

**Keywords:** choral art, traditional music, choral amateurism, children's choir, choral performance, mixed choirs, artistic groups, unaccompanied choirs, multi-voice choir.

## Kirish

O‘zbekiston hududida xor san’atining ilk namunalari an’anaviy musiqa va marosimlarda kuzatilgan. Asrlar davomida xalq og‘zaki ijodiyoti, diniy marosimlar va bayramlarda jamoaviy qo‘shiq ijro etish an’anasi shakllangan.

Professional xor san’atining rivojlanishi XX asrga to‘g‘ri keladi. Bu davrda O‘zbekistonda musiqa ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, kompozitorlar va dirijyorlarning faoliyati xor ijrochiligining yuksalishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

XX asrning 50 yillaridan boshlab etuk musiqa – xor namoyondalari Toshkent Davlat Konservatoriyasi, musiqa bilim yurti, madaniy-oqartuv texnikumi o‘quvchilari va talabalari tuman va viloyatlarga chiqib, havaskorlik guruhlariga uslubiy va amaliy yordam bera boshladilar, yangi-yangi xorlar tuzdilar. 1951 yilda o‘tgan ishchi va hizmatchilar badiiy havaskorligi 4-Respublika ko‘rigida birinchi marta ko‘p ovozli o‘zbek xor guruhlari qatnashdilar. Xorlar ijrosida S.Yudakovning “Tinchlik tarafdorlari marshi”, Muhamedovning “Tinchlik bayrog‘i”, S.Yudakovning “Mirzacho‘l” syuitasidan ayrim qismlari va boshqa ko‘p ovozli asarlar yangradi. Shu tariqa xor havaskorligida ko‘p ovozlilikni o‘zgartirish borasida birinchi qadamlar tashlangan edi. 50 yillardan boshlab Toshkent davlat Konservatoriyasi o‘quvchilari M.Subaeva, S.Valenkovlarning bolalar xor ijrochiligidagi ishlari diqqatga sazovordir. Respublikada bolalar xor ijrochiligining rivojlanishida Toshkent Davlat Konservatoriyasi dotsentlari E.M.Kenzer, Z.A.Valenkov, A.V.Vasileva O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan artist Shermet Yormatovlarning hizmatlari juda katta.

Toshkent shahar 9-o‘rta maktabning “Boychechak” bolalar xori va Toshkent shahar 99- maktab bolalar xori butun Respublikaga tanish har ikkala o‘zbek bolalar xorlari repertuarlarida jo‘rsiz uslubda yozilgan asarlar ko‘p edi. Bu xorlar 10 yildan beri uzluksiz ishlab kelmoqda. Shu xorlarga o‘xshagan bolalar xorlarini har bir viloyatda uchratish mumkin. Bolalar xor ijrochiligi hozirgi vaqtda jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Bu esa kelgusida kattalar xor havaskorligining rivojlanishi omillaridan biridir. Kattalar aralash xorlaridan Toshkent Davlat universiteti xor kapellasi, Toshkent Madaniy-oqartuv xori, Buxoro, Farg‘ona, Andijon pedagogika institutlari va pedagogika bilim yurtlari xorlari, Toshkent 1-avtokombinat erkaklar xalq xori, Toshkent to‘qimachilar kombinati saroyidagi mehnat veteranlari xori, O‘zbekiston Ko‘rlar jamiyati Respublika madaniyat saroyi rus xalq xori, Qarshi shahar ishlab chiqarish muassasasi xori va boshqa ko‘pchilik guruhlar o‘z mahoratlarini oshirish borasida muttasil ishlab kelmoqdalar.

Yuqorida nomi qayd qilingan xor guruhlari repertuarlarida vokal ijrochiligining eng oliy formasi hisoblangan a-kapella (jo'rsiz) uslubda ijro etiladigan asarlarning mavjudligi va ularni ustalik bilan ijro etilishi Respublikamizda xor-vokal ijrochiligi borasida quvonarli holdir va katta yutuqdir. Kompozitorlarimiz tomonidan ikkala tipdagi (akademik ham xalq) xor guruhlari uchun juda ko'p asarlar yozilgan. Sh.Ramazonov, T.Sodiqov, F.Nosirov, M.Burhonov, I.Akbarov, Z.Boboev, K.Kenjaev, B.Umidjanov va boshqalar tomonidan xorlar uchun ommaviy xor qo'shiqlari yozilgan va xalq qo'shiqlari qayta ishlangan. Shunday qilib, xalq guruh ijrochilik an'analari negizida tug'ilgan musiqa xor havaskorligi yarim asrdan ortiqroq davrda shakllandi va rivojlanib bordi. 1952 yilda O'zbekiston Davlat filarmoniyasi qoshida birinchi professional xor kapellasi tashkil qilindi. Kapellaga ist'edodli xormeyster S.Valenkov badiiy rahbar va A. Sultonov xormeyster qilib tayinlandi. Kapella uchun M. Burhonov o'zining birinchi jo'rsiz xor qo'shiqlarini yaratdi. Shunday qilib, Respublikada a-kapella janri vujudga keldi. Kapella 2-yillik yaxshi tayyorgarlikdan so'ng O'zbekiston bo'ylab gastrollarga chiqa boshladi. Guruh repertuari qayta ishlangan xalq qo'shiqlari rus va chet klassik asarlaridan iborat edi. Bu kapella uchun o'zbek kompozitorlari (Boboev, Yudakov, Akbarov va boshqalar) maxsus asarlar yoza boshladilar. Kapellaga keyinchalik A.Sultonov rahbarlik qila boshladi. Kapella tashkil bo'lgandan beri Ittifoqning ko'p shaharlari (Moskva, Leningrad, Kiev, Minsk, Riga, Tallin, Almata, Dushanbe)da gastrollarda bo'lgan. Butun ittifoq professional badiiy guruhlar konkursi laureati bo'lgan (1967-yil). 60-yillardan boshlab B.Umidjonov tomonidan o'zbek, tojik, qirg'iz va boshqa xalq qo'shiqlari "Diliman", "Gar nomedona bidon", "Yapuray", "Qorasoch", "Ililla yor" qayta ishlangan va original "Dilbarume" xor syuitasi yozilgan. Ular radio va televidenie xori, o'quv xorlari, xatto havaskorlik xorlari orqali ijro qilinib, xalq o'rtasida keng tarqaldi. A-kapella janri juda tez rivojlandi, shu bilan bir qatorda professional xor ijrochiligi ham mislsiz o'sdi. Radio va televidenie xori ijro etadigan "Segoh", "Chorgoh", "O'zgancha" kabi xor uchun qayta ishlangan asarlar ham B.Umidjonov qalamiga mansubdir. Bu qayta ishlangan jo'rsiz xorlar o'z faktura yozuviga ko'ra, rus va boshqa xorij kompozitorining shu janrdagi etuk asarlari qatoridan o'rin olgan. Jamoa bo'lib ijro etish, odamlarga chuqur, go'zal (estetik) zavq uyg'otibgina qolmay, balki, ularni jipslashtiradi. Jamoa bo'lib birlashishga olib keladi hamda ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. Bu so'z va musiqadagi g'oya bir odam orqali emas, balki, bir guruh jamoa tomonidan ifoda etilishidir.

### Xulosa

Xor san'ati insonning eng yaxshi his-tuygularini uyg'otib, hayajonlashtirish, qiziqtirish xususiyatiga ega. Shu sababdan xor ishtirokchilari bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy-g'oyaviy tarbiyalanishidagi o'rni juda katta va muhimdir.

O‘zbek musiqasining asosi melodik (bir ovozli) bo‘lganligi uchun ko‘p asrlar davomida ko‘p ovozli xor ijrochiligi amalda qo‘llanmagan. Xor san‘ati Respublikamizda 1917 yildan keyin rivojlana boshladi. Ko‘p ovozli xor dastlab musiqali drama va komediyalarda xalq musiqasini xorga moslab, qayta ishlangan holda qo‘llanildi. M.Ashrafiy va S.Vasilenkning «Bo‘ron»: T.Sodiqov va R.Glierlarning «Layli va Majnun» kabi operalari ko‘p ovozli o‘zbek xor ijrochiligi rivojida katta o‘rin tutadi. Jamoa bo‘lib ijro etilgan har qanday asar tinglovchini beixtiyor o‘ziga rom etibgina qolmay, balki musiqiy hayot olamiga g‘arq bo‘lishga, asar qahramonlari hayoti bilan yashashga, ularning ichki kechinmalari, his-hayajonlarini to‘g‘ri anglashga undaydi. Misol sifatida Davlat xor kapellasini, Milliy xor jamoasini, A.Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatrining xor truppasini, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining talabalar xor jamoasini keltirish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Sharipova, G'.Najmiddinov. Musiqa o'qitish metodikasi (darslik). 2018.
2. D. Omonullayeva. Darsda xalq merosi o'rganish. Boshlang'ich ta'lim 2003y.
3. Tursunbaevna, Botirova Xilola. "New approach to vocal-choral skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1638-1654.
4. Tursunbaevna, Botirova Xilola "New approach to vocal-choral skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1638-1654. [cejsr.academicjournal.io>index.php/journal/...](https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/...)
5. "New approach to vocal-choral. skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research. Journal 11.4 (2021): 1638-1654. Tursunbaevna, Botirova Xilola.
6. Khilola Tursunbaevna Botirova STUDENT, VIDYALANKAR INSTITUTE OF TECHNOLOGY **DOI: <https://doi.org/10.36713/epra6721>**
7. Botirova Khilola Tursunbayevna, . (2023). WAYS OF DEVELOPING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF THE STUDENT - YOUTH THROUGH PERFORMING ART OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(06), 61–66. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-06-11>
8. [324am 2.EPRA JOURNALS-6742.pdf](https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-06-11)
9. Botirova, K. T. . (2021). Performance And Art. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 465–474. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue05-83>
10. Botirova Khilola Tursunbayevna, . (2023). WAYS OF DEVELOPING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF THE STUDENT - YOUTH THROUGH PERFORMING ART OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(06), 61–66. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-06-11>
11. Urozali Toshmatov "Folklor qo'shqlari" 2009 yil